

BADIY MATNDA SEMANTIK INERSIYANING VOQELANISHI

Muslimjon Nasirov

Qo‘qon DU, O‘zbek tili va adabiyoti

kafedrasi o‘qituvchisi

Madinaxon Mo‘ydinova

Qo‘qon DU, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikdagi sema (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no) va ko‘chma ma’no (obrazli ma’no) tushunchalari o‘rtasidagi farq, ularning tildagi vazifasi va matndagi ifodaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul asarlari obyekt sifatida olinib, matndagi metaforik bog‘liqliklar, kognitiv birikmalar va obrazlilik manbalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, metafora, kognitiv metafora, semantic inersiya, badiiy matn, sema, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, referent.

Har bir so‘z ma’lum bir ma’noni anglatadi. Bu ma’no ikki asosiy turga bo‘linadi: **sema** (asosiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no) va **ko‘chma ma’no** (mazmun jihatdan kengaygan, obrazli ifoda). Tilshunoslikda bu ikki qatlam so‘z boyligining shakllanishi, nutqning obrazliligi va fikrning aniqligida muhim o‘rin tutadi.

Sema — bu so‘zning eng oddiy, bevosita tushuniladigan lug‘aviy ma’nosidir. Masalan, “yurak” so‘zining semasi — odam organizmidagi a’zo. Ko‘chma ma’no esa — shu so‘zning boshqa, obrazli vazifada qo‘llanishi: “yuragi katta inson” — bu yerda jur’atli, mehribon ma’nosini tushuniladi.

Ushbu maqolada sema va ko‘chma ma’no o‘rtasidagi farqlar, ularning tildagi vazifasi, shakllanish omillari va matndagi ifodaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ko‘chma ma’noning adabiy til, publisistika va xalq og‘zaki ijodida qanday rol o‘ynashi ham alohida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotchi D.Xudoyberanova birikma – metaforalarni tadqiq etar ekan, tilshunosligimizga yana bir yangi termin - “semantik inersiya” terminini kiritishni taklif etadi. Tadqiqotchi ushbu termini shunday izohlaydi: “Matn boshlanmasida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘z birikmasi matnning keyingi jumlalari semantikasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi, ya’ni kogerentlik talabi bilan takrorlangan ko‘chma ma’noli birikmalar navbatdagi jumlalarga ham metaforik mazmunni olib o‘tadi”.

Darhaqiqat, Nazar Eshonqul asarlarida ham “semantik inersiya” natijasida paydo bo‘lgan bir qancha kognitiv birikma – metaforalarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “*Kimgadir ko‘ngil qo‘yib qolarmikanman degan umidda yana ko‘p qizlarga qalb eshigimni ochib berdim. Biroq bu eshik ularni ichkariga kiritmadi yoki ularning eshigidan men kirolmadim*” (“Tun panjaralari”). Ushbu parchada keltirilgan qalbim eshigi (ko‘ngil) referenti keyingi jumlalardan ochib bermoq (ko‘nglini ochmoq), kiritmadi (xohlamadi) birikmasini taqazo qilishi aynan semantik inersiya natijasidir.

Kengingi jumlalarda ham buni ko‘rishimiz mumkin: “*Ko‘nglim zardoblanib - zardoblanib, oxiri qurtlab ketdi. Ko‘rdilar u yerdagi hayotdan nishona bo‘lgan hamma narsani surib chiqardi. Endi gullay boshlagan orzu daraxtimni ko‘z ongimda yeb bitirdi, o‘zimni esa mana shu kimsasiz tungi xilvatga olib kelib tashladi*” Bu gapda esa orzu daraxti (orzular) referenti keyingi jumlalardan yeb bitirdi (yo‘q qildi), olib kelib tashladi (tushkunlikda qoldi) birikmasi taqazo qilishi semantik inersiya najisidir.

Shunday holatni quydagi jumlada ham ko‘rishimiz mumkin: “*Shu sababli umrimning eng baxtli lahzalari bo‘lib tuyuladigan, ortda qolgan bolalik uyining tuynigidan ichkariga - robiya tomon tez-tez muralab tursam kerak.*” Ushbu parchada keltirilgan bolalik uyining tuynigi (xotiralar), referenti keyingi jumlalardan, mo‘ralab tursa kerak (eslamoq) birikmasi taqazo qilishi semantik inersiya najisidir.

Keyingi jumlada esa: “*Men o‘zimni axtarib taqdirning besanoq ko‘chalariga tarixdek sochilib ketdim goyo vujudimda son sanoqsiz “men”lar chiqib shaharning yohu ko‘chalariga kirib g‘oyib bo‘lganday*”. Bu gapda taqdirning besanoq ko‘chalariga (sinovlariga) referenti keyingi jumlalardan sochilib ketim (duch keldim) birikmasi taqazo qilishi semantik inersiya.

Yana bir misolda: “*Hamma balo shundaki, bizning ildizimizni kesib*

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo'yishgan. Kesib olishganu boshqa bir daraxtga payvand qilishgan. Vujudimizda yod daraxtning qoni kezadi. Gullarimizning erta to'kilishiga sabab shu". Bu gapda ildizimizni (madaniyatini) referenti keyingi jumlalardan kesib qo'yishgan (yo'q qilishgan), boshqa bir daraxtga payvand qilishgan (o'zgartirishgan) birikmasi taqazo qilishi semantik inersiya najisidir. ("Tun panjaralari" qissasidan)

Xulosa qilib aytganda, sema va ko'chma ma'no o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'no qatlamini boyitadi, obrazlilik va ifodaviylikni ta'minlaydi. Tilshunoslikda bu ikki qatlamni ajratib o'rganish — tilda so'zlarning qanday ishlatilishini, nutqdagi estetik kuch va ma'no ko'laming kengayishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, semantik inersiya — ko'chma ma'no bilan boshlangan birikma butun matn semantikasiga ta'sir ko'rsatishi hodisasi — ayniqsa badiiy nutqda keng namoyon bo'ladi. Nazar Eshonqul kabi yozuvchilarining asarlarida bu hodisa orqali mazmun uzlucksizligi, semantik bog'liqlik va obrazli tafakkur kuchli ifodasini topadi.

Shunday qilib, semantik inersiya faqat bir stilistik uslub emas, balki matnning ichki mantiqiy-tasviriy strukturasini tashkil qiluvchi muhim til hodisasiidir. Bu hodisani chuqur tadqiq qilish — tilda ko'chma ma'nolarning qanday shakllanishi, rivojlanishi va matnga qanday ta'sir ko'rsatishini anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xudoyberanova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Eshonqul N. Yalpix hidi. – Toshkent: "Sharq", 2008.
3. Eshonqul N. Shaftoli guli. – Toshkent: "O'zbekiston", 2011.
4. Yuldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzah, 2006.
6. Nasirov, Muslimjon. "ASSOCIATIVE RELATIONSHIPS IN CLASSICAL POETIC TEXTS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &*

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.09 (2022): 349-352.

7. Nasirov, M., and Malikaxon Nasirova. "METAPHORES IN THE WORKS OF NAZAR ESHONQUL." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 18-22.
8. Nasirov, Muslimjon. "ANALYSIS OF METAPHORICAL MEANINGFUL UNITS IN A LITERARY TEXT (On the example of the works of Nazar Eshonkul)." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.09 (2022): 342-344.*